my.gov.uz

Ўзбекистон Республикаси
Қурилиш ва
уй-жой коммунал
хўжалиги вазирлиги.

№ 8632-5166-6a7f-8f78-8164-9032-9411
Ҳужжат яратилинган сана: 2024-06-13
Ариза рақами: 121766224

Ҳужжат берилган: "TEXMAISHIYLOYIHA"
MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
СТИР: 201059039

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚУРИЛИШ ВАЗИРЛИГИ

Тошкент шахар Қурилиш бош бошқармаси

Лойиҳа-смета ҳужжатларини келишиш бўйича Архитектура ва шаҳарсозлик кенгаши ишчи органининг

2024-06-13 даги 121766224 -сонли

ХУЛОСАСИ

т/р	Тақдим этиладиган маълумотлар	
1.	Ариза рақами:	121766224
2.	Мурожаат этувчи Лойиҳа ташкилотининг номи:	"TEXMAISHIYLOYIHA" MCHJ
3.	Лойиҳа-смета хужжатларининг буюртмачиси номи:	“JN MEGA PORCELAIN” МЧЖ
4.	Объект манзили:	Чилонзор тумани, Бешқўрғон МФЙ, Чорбоғ кўчаси, 53а-уй
5.	Лойиҳа-смета хужжатларининг номланиши:	Тошкент шахри, Чилонзор тумани, Бешкургон МФЙ, Чорбог кучаси, 53а уйда жойлашган "JN MEGA PORCELAIN" МЧЖга тегишли мавжуд Республика китоб базаси бино ва иншоотларини кайта ихтисослаштириб 4700 тонна гача ёнмайдиган курилиш махсулотлари омборхонасига реконструкция килиш
6.	Архитектура-режалаштириш топшириғининг реквизитлари:	1726-1726294-101251

Лойихани кўриб чиқиш натижаси

т/р	Категория	Натижа	Изох
1.	Сўровноманинг тўғри тўлдирилганлиги:	Ижобий	
2.	Объект бош режасининг ечими тўғри топилганлиги:	Ижобий	
3.	Объектнинг меъморий ечими тўғри топилганлиги:	Ижобий	

4.	Лойиҳада автотураргоҳ масаласи ҳал этилганлиги:	Ижобий	
5.	Қурилиш чизиғига амал қилинганлиги:	Ижобий	
6.	Ситуацион планда аниқ кўрсатилганлиги:	Ижобий	
7.	Ёнғин ҳавфсизлиги ва санитария талабларига амал қилинганлиги:	Ижобий	
8.	Лойиҳада имконияти чекланган шаҳсларинг манфаатлари ҳисобга олинганлиги:	Ижобий	
9.	Лойиҳада энергиясамарадорлик талабларига амал қилинганлиги:	Ижобий	
10.	Лойиҳа ташкилоти лицензия орқали рухсат берилган соҳа доирасидан ташқари объектнинг лойиҳаси ишлаб чиқилганлиги:	Ижобий	
11.	АРТ талабларидан четга чиқиш:	Ижобий	

Алоқадор ташкилотларнинг хулосалари:

Ҳудудий ёнғинга қарши назорат хизмати: Келишилган;
Қўшимча маълумотлар: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2022-yil 20-apreldagi “Arxitektura va qurilish soxasidagi davlat xizmatlari ko‘rsatishning ayrim ma’muriy reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 200-son qarorining 4-ilovasi “Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma’muriy reglamenti”ga asosan loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha, Chilonzor tumani Favqulodda vaziyatlar bo‘limining № 23/32-240-sonli X U L O S A S I 2024-yil 20-aprel Toshkent sh. Toshkent shahar Chilonzor tumani Favqulodda vaziyatlar bo‘limi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-apreldagi “Arxitektura va qurilish sohasidagi davlat xizmatlari ko‘rsatishning ayrim ma’muriy reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 200-son qarorining 4-ilovasi “Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma’muriy reglamenti”ga asosan, “my.gov.uz” YaIDXPdan 2024-yil 17-aprel kuni №121766224-unikal raqamli murojaat kelib tushgan bo‘lib, unda, (2024-yil 20-fevral kuni №114272185-unikal raqamli murojaat 2024-yil 25-fevral kuni 23/32-240-sonli xulosa bilan kelishilgan) Chilonzor tumani “Beshqo‘rg‘on” MFY Chorbog‘ ko‘chasi 53a-uyda joylashgan “JN MEGA PROCELAIN” MChJga qarashli hududda qo‘shimcha “Omborxona” binosini qurish bo‘yicha “Texmajshiyloyiha” MChJ tomonidan ishlab chiqilgan “eskiz” loyihasini o‘rganib chiqib xulosa berish yuzasidan berilgan murojaat ko‘rib chiqildi. Omborxona binolarida evakuatsiya yo‘llari va joyi ShNK 2.01.02-04 “Bino inshootlarning yong‘in xavfsizligi” shaharsozlik norma va qoida talablarining 5.8 va 5.15-bandlariga muvofiq ishlab chiqilgan; binoning yaqinidagi binolargacha bo‘lgan oraliq masofani ShNQ 2.07.01-03* “Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini qurish va rivojlantirishni rejalashtirish” shaharsozlik norma va qoidalari 1*-ilovasining (majburiy) 1-jadvaliga asosan qabul qilingan; Eskiz loyihani ko‘rib chiqish natijasiga ko‘ra O‘z.Respublikasida amalda bo‘lgan shaharsozlik norma va qoidalarida belgilangan yong‘inga qarshi talablarni ishchi loyiha hujjatlarini ishlab chiqishda inobatga olish maqsadga muvofiq. Shuningdek, O‘z.Res Shaharsozlik kodeksining 60-moddasiga asosan obyektning loyiha-smeta hujjatlari shaharsozlik hujjatlari, shaharsozlik normalari va qoidalariga muvofiq ishlab chiqilib DYoN bilan kelishish hamda ShNK-1.03.01-16 me’yoriy hujjatining 5.9-bandiga asosan yong‘in xavfsizligi bo‘yicha majburiy ekspertizadan o‘tkazilishi tavsiya etiladi. Chilonzor tumani FVB;

Ҳудудий санитария-эпидемиология хизмати: Келишилган;
Қўшимча маълумотлар: O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qumitasi Toshkent shaxar boshqarmasining Chilonzor tumani bo‘limi Sizning 17.04.2024 yildagi 121766224-sonli murojaat xatingizga asosan Chilonzor tumani Beshkurgon MFY Chorbog ko‘chasi 53a-

uyda joylashgan «JN MEGA PORCELAIN» MChJga qarashli Mavjud Respublika kitob bazasi bino va inshootlarini kayta ixtisoslashtirib yonmaydigan kurilish maxsulotlari omborxonasiga rekonstruksiya kilish bo‘yicha "TEXMAISHIYLOYIHA" MCHJ tomonidan ishlab chiqilgan dastlabki “eskiz” loyixasiga xulosa berish yuzasidan kelib tushgan murojaat, xizmat vakolati dorasida ko‘rib chiqildi.. “O‘zbekiston Respulikasi axoli yashash joylarini atmosfera xavosini ximoya qilish to‘g‘risida”gi San KvaM 0350-17 va ShNK 2.07.01-03 talablari bo‘yicha o‘rganish ishlari olib borildi. San KvaM 0350-17 va ShNK 2.07.01-03 talablariga ko‘ra sanitariya mintaqa ximoya zonasini va amaldagi SanKvaM va ShNKlar talablariga amal qilgan xolda, Chilonzor tumani Beshkurgon MFY Chorbog ko‘chasi 53a-uyda joylashgan «JN MEGA PORCELAIN» MChJga qarashli Mavjud Respublika kitob bazasi bino va inshootlarini kayta ixtisoslashtirib yonmaydigan kurilish maxsulotlari omborxonasiga rekonstruksiya kilish. uchun SanKvaM va ShNKlar talablariga amal kilgan xolda loixalashtirishga e’tiroz bildirmaydi. ;

Бош архитектор: O`zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi;



Тошкент шахри Чилонзор тумани "Бешқорғон" МФЙ Чорбоғ кўчаси 53а-уй да жойлашган "JN MEGA PORCELAIN" МЧЖ га тегишли мавжуд Республика китоб базаси бино ва иншоотларини 4700 тонна гача ёнмайдиган қурилиш махсулотлари омборхонасига қайта ихтисослаштириб реконструкция қилиш

Вид с птичьего полета

Вид с птичьего полета

Вид с птичьего полета

Ситуационный план

Генплан М1:500

Экспликация зданий и сооружений

Условные обозначения

Баланс проектируемой территории

TOSHKENT SHAHAR QURILISH BOSH BOSHQARMASI LOYIHANI KELISHISH № 03-22 ТИҲ «03» 05 2024 YIL

ООО "TEXMAISHIYLOYIHA"
Лицензия № АЛ-001037 от 27.06.2020 г.

ДИРЕКТОР: ..... Холиев.А.Х

ГАП: ..... Жураев О.

Заказчик:
ООО "JN MEGA PORCELAIN" .....

СОГЛАСОВАНО

ГУС г. Ташкента: .....

1

Маъкулланди:

1. Хулоса берувчиларнинг хулосасида кўрсатилган талабларни бажариш, мухандислик тармоғидан химоя масофаси сақлаш, ўз ер участкасидан чиқмаган холда қурилиш линиясига риоя қилиш шарти билан лойиҳа ишларини давом эттириш.

2. Лойиҳалаш жараёнида АРТ ва рухсатномада кўрсатилган талабларни бажариш белгиланди.

Қуйидаги талаблар: Лойихада келишиб берилган барча бино ва иншоотларда тунги ёритиш тизимини ўрнатиш талаби белгилансин ва ушбу талаб лойихада кўрсатиб ўтилсин.

Кенгаш аъзолари томонидан юкорида кўриб чиқилган лойихалар юзасидан ШНҚ асосида хар бир берилган талаб ва шартлар тегишлилиги бўйича назоратга олиш ва ушбу ишлар амалга оширилмагунга кадар Тошкент шахар қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги сохасида назорат қилиш инспекцияси бино фойдаланишга қабул қилинмаслиги назоратга олсин.

"Худудий электр тармоқлари" АЖнинг Тошкент шахар филиали, "Hudud gaz poytaxt" газ таъминоти филиали, Тошкент шахар "Сув таъминоти" МЧЖ директорлари хар лойихани аниқ хисоб китобларга таянган холда юкламалар яратиш шартларини аниқ белгилаб берсин. Белгиланган меъёрлардан ошикча юкламаларда ишлаётган худудларда коммуникация тармокларига уланишга йўл қўймасин.

Экология, атроф-мухитни мухофаза қилиш ва иклим ўзгариши вазирлигининг Тошкент шахар бошқармаси хар бир худудни ўганиб, юкоридаги хар бир лойихалар учун иклим шароитига мос бўлган айланаси 18 см.дан, баландлиги 3 метрдан кам бўлмаган дарахтлар, 6 литрдан кам бўлмаган буталар экилишини назорат қилсин. Лойиҳалаш жараёнида атроф мухитга таъсир кўрсатилиши тўғрисидаги баёнот лойиҳаси (ЗВОС) олиш шарти белгилансин.

Лойихада мухандислик тармокларининг юкламалари инобатга олган холда техник шартлар олиш ва ушбу техник шартлар талабларини бажариш хамда уларга туташ худудларнинг кўкаламзорлаштириш (дарахтлар, буталар, бошқа ўсимликлар ва навихолларни экиш) майдонлари лойиха учун ажратиладиган ер участкалари умумий майдонинг 25 фоизидан кам бўлишига йўл қўйилмаслик талаби белгилансин.

Лойиха ташкилотлари томонидан лойиҳалаштирилаётган бинолларда углеводородлар ва электр энергияси истеъмолини камайтириш мақсадида, энергия тежамкор қурилиш материалларидан фойдаланиш, иссиқ сув таъминоти, ёритиш ва бивалент иситиш тизими учун фотоэлектрик тизимлар, гелиоколлекторлар ва иссиклик насосларини ўрнатиш, мухандислик тармокларини хам инобатга олинсин.

Лойиҳаларни кўриб чиқиш натижаси бўйича мутасадди бошқармалар ўз йўналиши бўйича маъсул эканлиги белгилаб қўйилсин.

Мазкур худудда лойиҳа асосида қурилиш ишларини олиб бориш учун ён қўшниларни розилигини олиш тавсия этилади.

Ушбу хулоса қурилиш ишларини бошлашга асос бўлмаслигини, шунингдек, хулоса талаблари бажарилмаган тақдирда қонунчиликда белгиланган тартибда хулосани бекор қилинишига сабаб бўлиши мумкинлигини ва бундай холатда жавобгарлик лойиҳа ташкилоти зиммасига юклатилишини маълум киламиз.

Мазкур ҳужжат Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон қарорига мувофиқ Ягона интерактив давлат хизматлари порталида шакллантирилган электрон ҳужжатнинг нусхаси бўлиб, давлат органлари томонидан ушбу ҳужжатни қабул қилишни рад этишлари қатъиян тақиқланади. Ҳужжат ҳақиқийлигини repo.gov.uz веб-сайтида ҳужжатнинг ноёб рақамини киритиб ёки мобил телефон ёрдамида QR- кодни сканер қилиш орқали текшириш мумкин.

3453